

SUN'IY INTELLEKT. TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH TEXNIKLALARI

Dinara Ozodova Umidbek qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamon talabi bilan rivojlanib borayotgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida so'z boradi. Xususan, o'quv sistemasiga har tomonlama yordam berayotgan sun'iy intellekt va uning o'rni, muhimligi, ishlatilish o'dobi, foydalari bilan bir qatorda salbiy jihatlari to'g'risida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt(SI), AGI, AS, ishlash sistema, maxfiylik va xavfsizlik, shaxsiyat.*

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan jabhalar vazifalarining ko'pchiligini sun'iy intellekt yordamisiz deyarli bajarish mushkul. Shunday ekan, biz foydalanayotgan sun'iy intellekt asli nima va uning inson hayotiga ta'siri qanday? Sun'iy intellekt-kompyuter sistemasida inson aql-idrokining ayni tuzilmasi bo'lib inson kabi fikrlay oladigan, ma'lum mavzu doirasida erkin o'zining fikrlarini har tomonlama muhokama qilib bera oladigan sistemadir. Har qanday holat va vaziyatda muayyan fikrni targ'ib qila oluvchi va murojaatnomani javobsiz qoldirmaydigan texnologiya sifatida sun'iy intellekt har ishda odamzotga o'zini nomoyon qila olmoqda. Sun'iy intellekt bajara oladigan vazifasi va bildira oladigan fikriga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi:

1. **Tor SI(artificial narrow intelligence)**- muayyan vazifalarni cheklangan va inson aql-idrokiga nisbatan pastroq ishlovchi tizim. Boshqa turdan farqli ravishda Tor (SI) faqat bir tomonlama yaxshi va chuqurroq ishlay oladi. Ya'ni bir mavzuda berilgan ma'lumotni boshqa mavzuga bog'lay olmaydi. Shuningdek, ma'lumotlarni inson fikriga o'xshash holda emas, balki aniq ma'lumotlarga tayangan holda tahlil qiladi va shunga muvofiq javob beradi. Ayni paytda Tor (SI) ning foydalari tibbiyot, moliya, texnologiya, transport va ko'ngilochar o'yinlarda ko'rish mumkin.

2. **Umumiy SI (artificial general intelligence)**- bu inson aqlidek va hatto ayrim mavzularda undan yuqori fikrlash qobiliyatiga ega Sistema bo'lib har qanday so'roqlarga erkin javob bera oladi. Umumiy SI bir nechta tarmoqli mavzularda bema'lol fikr bera olish xususiyatiga ega bo'lib, zamon bilan hamnafas holda ichki ma'lumotlarini va aniq informatsiyalarini doimiy kengaytirib boradi.

Ta'lim tizimida Umumiy sun'iy intellekt sezilarli o'ringa egadir:

1. **Individual ishlash sistemasi**- har bir ilmga talab qo'ygan insonga yordam bera oladi. Vazifalardagi xatoliklarni aniqlab, to'g'ri maslahatlar bera oladi.

2. **Doimiy yordam**- darslardan keyin tushunarsiz qolgan mavzular o'rnini to'ldirishda yordam beradi va o'qituvchi sifatida qoldirilgan darslar haqida ma'lumot va savollarga javob beradi.

3. **Til o'rganishdagi qulaylik-** boshqa texnologiyalardan farqli ravishda sun'iy intellekt nafaqat adabiy, balki shevalarni ham ma'lum darajada tushunib yozilgan tilda javob qaytara oladi. Shu sababdan ham ma'lum tilni o'rganishda undan resurslarni olish qulayroq va vaqtini tejay oladi.

4. **Nogironligi bo'lgan foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash-** nafaqat yozish, balki ovozi xabar yuborish keyin javobni ovozi yoki matn tarzda yubora olish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi.

3. **Superintellekt (Artificial superintelligence)-** inson aqlidanda yuqori ishlaydigan sistema. Har ishda yordami siz-u biz xohlaganimizdek tegadigan bu tizimning o'quv sistemasidagi o'rni muhimdir. Umumiy SI dan farqli ravishda bu tizim tezroq va aniqroq ishlash xususiyatiga ega bo'lib bir qancha qulayliklarni foydalanuvchilarga yaratib beradi:

1. **O'qituvchilarga yordam-** ustozlar ishini yengillashtirgan holda superintellekt ularga qiziqarli metodikalarni o'rgatadi va o'qituvchilar qiynaladigan savollarga bemaol yechim taqdim eta oladi.

2. **Ta'lim globallasuviga yordam-** yerning qaysi nuqtada bo'lishimizdan qat'iy nazar o'z tilimizda va o'z yo'limizda noaniq qolgan mavzularimizda yordam beradi, qo'llab-quvvatlaydi.

3. **Tadqiqot rivojiga yordamchi-** global mavzu, murakkab ilmiy masalalarda ma'lum, aniq fikr va maslahatlar beradi, shuningdek, kuzatiladigan natijalar, yechimlarni ham ko'rsatib beradi.

Superintellekt nafaqat majud ichki ta'lim rivojiga yordam beradi, balki uni kutilmagan yangi bosqichga ko'tara oladi. Lekin ayni paytda Tor SI dan boshqa turlari mukammal shakllanib ulgurmagan. AGI va AS darajalariga hali erishilmagani bois sun'iy intellect ayni bir tomonlama foydalanuvchilariga yordam bera olish xususiyatiga egadir.

Hozirgi kunda butun ommaga oz muddat ichida tarqalib ulgurgan sun'iy intellekt kitobdan o'qib olinadigan ma'lumotlardan farqli ravishda tez, oson, qulay va aniq ishlaydi. Shu sababdan ham ham o'qituvchi ham o'quvchi ilm talabida kutubxonalardan qidirgandan ko'ra sun'iy intellektidan foydalanishni ma'qul ko'radi. Bu orada foydalanuvchi ham vaqtdan yutadi va barcha so'roqlariga javob oladi. Sun'iy intellekt har qanday holat va savolga fikrini bildirmasdan qo'ymas ekan, undan qanday to'g'ri maqsadda foydalana olish foydalanuvchining o'ziga bog'liq, chunki no'tog'ri boshqaruv kutilmagan holatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, firibgarlik, kamsitish, maxfiylikni buzish holatlari ayni foydalanish odobiga zid va foydalanuvchiga ziyondir. Bundan tashqari, ta'lim sohasida ma'lum mavzuda sun'iy intellektidan fikr-maslahatlar so'rash yaxshi lekin uni boricha ko'chirish ziyondir. Chunki, o'rganish o'rniga qilingan bu harakat foydalanuvchi ilm darajasini tushirishdan va uni bundan keying vaziyatlarda dangasa qilishdan boshqasiga yaramaydi. Ma'suliyatni sun'iy intellektga tashlash har doim ham to'g'ri bo'lmasligi mumkin, chunki ayni paytdagi mavjud Tor SI tizimi bir tomonlama yondashish

jarayonida savolni javobsiz qoldirmaslik uchun ham unga yaqin bo'lgan mavuzni havola etishi mumkin. Keyin bu fikrni ma'lum mavzuda amalda tatbiq qilish jarayonida foydalanuvchida bir nechta ikkilanishlar va noto'g'ri g'oyalar kelishi mumkin. Shuning uchun ishlatish jarayonida bir nechta qoidalarga bo'ysunish foydadan xoli bo'lmaydi:

1. **Ma'suliyatli bo'lish-** ayni kerak bo'lgan va foydasi tegishiga ishonchimiz komil bo'lgan fikrni muhokama qilish yoki savol berish lozim

2. **Adolatli yondashuv-** ayni ishlatish jarayonida boshqa shaxs va millatlarga nisbatan yomon fikrda bo'lmaslik, tenglikni saqlash zaur.

3. **Maxfiylik va xavfsizlik-** SI tuzilmasi shaxiy ma'lumotlarni saqlaydi va maxfiylik qoidalariga rioya qiladi. Lekin ma'lum qoidalarga rioya qilgan holda o'zimiz va o'zganing shaxiyatini saqlash va beruxsat tarqatish holatlari yuz bermasligi zarur.

Umuman olganda, sun'iy intellekt inson hayotida muhim rol o'ynay oladi, xususan ta'limda ham. Britaniya ta'limshunoslaridan biri Sir Antony Seldonning « Kelajakda sun'iy intellect kundalik vazifalarni avtomatlashtiradi, bu esa ularning o'quvchilarga ko'proq e'tibor qarata olish imkoniyatini beradi » degan fikriga ko'ra ham bu dars jarayonlarini yengillashtirishiga ishona olamiz. Xulosa o'rnida aytish joizki, sun'iy intellekt haqiqiy inson bo'lolmas lekin insoniyat imkoniyatlarini tubdan rivojlantirib, kengaytira oladi. Natijada, unga bo'lgan talab kelgusida jadallashadi. O'quvchilarning talabiga javob berayotgan bu tuzilma ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularga bir muncha qulayliklarni yaratib beradi.

QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stuart Russell & Peter Norvig "Artificial Intelligence: A modern approach"
2. W.Holmes, M. Bialik, C.Fadel "AI in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning" from Google Scholar
3. Floridi, L & Cowls, J. (2009). "AI Ethics: Guiding principles for the Future of AI development"
4. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016) "Deep learning for Education" from SpringerLink
5. Bostrom, N. (2014). "Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies."
6. aima.eecs.berkeley.edu